



**YANGI O'ZBEKISTON: IJTIMOIIY DAVLAT QURILISHI
VA DEMOKRATIK ISLOHOTLAR**

Ahmadova Zebiniso Shavkatovna,

*Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro
innovatsiyalar universiteti dotsenti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistonda ijtimoiy davlat qurilishi jarayonlari va demokratik islohotlarning ahamiyati yoritiladi. Davlat boshqaruvidagi asosiy tamoyil sifatida "inson – jamiyat – davlat" yondashuvining Konstitutsiyaviy mustahkamlanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, mamlakatda oxirgi yillarda amalga oshirilgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar, jumladan, kambag'allikni qisqartirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, inson huquqlari va fuqarolik jamiyatini mustahkamlash bo'yicha olib borilgan islohotlar haqida so'z yuritiladi. Maqolada ijtimoiy adolat, inson huquqlari, iqtisodiy taraqqiyot va demokratik qadriyatlarining qaror topishi jarayonlari ham atroflicha ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Yangi O'zbekiston, ijtimoiy davlat, demokratik islohotlar, Konstitutsiya, inson huquqlari, ijtimoiy adolat, iqtisodiy taraqqiyot, fuqarolik jamiyati, ta'lim islohotlari, sog'liqni saqlash tizimi, kambag'allikni qisqartirish, huquqiy davlat, o'rta sinf, innovatsion rivojlanish.*

O'zbekistonda "davlat – jamiyat – inson" tamoyilini yangi "inson – jamiyat – davlat" tamoyiliga o'zgartirib, konstitutsiyaviy qonunchilik va konstitutsiyaviy amaliyotda mustahkamlash, eng avvalo inson manfaatini har narsadan ustun qo'yish maqsad qilindi.

Prezident Sh.Mirziyoyev 2021-yil 7-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yilligiga bag'ishlangan nutqida *"Hozirgi kunda O'zbekiston ijtimoiy davlat va adolatli jamiyat qurish sari dadil bormoqda. Shu sababli "Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat", degan tamoyilni konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrlashning vaqti-soati yetdi"* deb ta'kidlagandi.

Qayd etish lozimki, ijtimoiy davlat – sifatli ta'lim, malakali tibbiy yordam, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, muhtojlarni uy-joy bilan ta'minlash, bandligini ta'minlash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan davlat modelidir.

Ahamiyatlisi, mamlakatda oxirgi besh-olti yilda ijtimoiy davlatning asosiy talablari amalda qo'llanildi, jumladan:

Birinchidan, 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi va 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida, aynan ijtimoiy sohani rivojlantirish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish masalalari ustuvor vazifalar etib beligilandi.





Ikkinchidan, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tashkil etildi, "Monomarkaz"lar faoliyati yo'lga qo'yildi, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" tashkil etildi, ishlayotgan pensionerga yuz foiz pensiya to'lashga o'tildi, 2022-yilni "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" deya nomlanildi, Aholini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi tasdiqlandi va mamlakatda kambag'allik muammosi tan olindi, har bir aholi punktlarida (mahallalarda) kambag'allikni qisqartirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadini oshirish uchun mas'ul bo'lgan hokim yordamchilari lavozimi joriy etildi. Eng muhimi, aholiga g'amxo'rlik ko'rsatish bo'yicha yangi tizim yo'lga qo'yildi.

Uchinchidan, ijtimoiy davlatga mos bo'lgan ta'lim va tibbiyot sohalariga alohida e'tibor qaratildi. "Ta'lim uchun investitsiya – buyuk kelajakka sarmoya" shiori ostida uzluksiz ta'lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta'lim-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha misli ko'rilmagan islohotlar amalga oshirildi, buning natijasida maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi 27,7 foizdan 67 foizga, maktablardagi malakali oliy ma'lumotli o'qituvchilar ulushi 81,8 foizdan 87,8 foizga, 11 yillik majburiy maktab ta'limi qayta tiklandi, maktab o'qituvchilarining ish yuklamasi maqbullashtirildi va majburiy mehnatga barham berildi, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga yetkazildi.

Sog'liqni saqlash sohasida byudjetdan ajratilgan mablag'lar 7,3 trln. so'mdan 24,7 trln. so'mga, shifokorlarning o'rtacha oylik maoshi 1131,2 ming so'mdan 3282,7 ming so'mga, hamshiralar maoshi 692,1 ming so'mdan 2008,6 ming so'mga, dori vositalari va tibbiy buyumlar uchun byudjetdan ajratilgan mablag'lar 0,4 trln.so'mdan 1,8 trln.so'mga, tibbiyot sohasidagi OTMLar soni 7 tadan 9 taga, xususiy tibbiyot tashkilotlari soni 4 000 tadan 7 049 taga yetkazildi. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etishning asosi yaratildi.

Yangilanayotgan Konstitutsiyada O'zbekiston ijtimoiy davlat deb e'lon qilinmoqda. Davlatning ijtimoiy majburiyatlariga oid normalar qariyb uch baravarga ortmoqda.

"Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat" tamoyilini konstitutsiyaviy norma sifatida mustahkamlanmoqda, bolalar mehnatiga yo'l qo'yimaslik, nogironligi bor shaxslar va keksa avlod vakillari huquqlarining ishonchli muhofazasini ta'minlash, fuqarolarning ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta'minlash, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorini belgilanishi, fuqarolarning tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini davlat hisobidan olishga haqliligi kabi qo'shimchalar konstitutsiya loyihasiga kiritilmoqda.

Natijada inson va fuqarolarning Konstitutsion normalar orqali kafolatlangan ijtimoiy-iqtisodiy huquqi va erkinligi, o'z navbatida, mos ravishda davlatning tegishli majburiyati bilan mustahkamlanmoqda.

Bu esa, o'z navbatida, so'nggi yillarda Harakatlar strategiyasi doirasida erishilgan natijalar va Taraqqiyot strategiyasi doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun mustahkam konstitutsion himoyani ta'minlash, huquq va erkinliklardan kelajak avlodlarimiz emin-erkin foydalanishi uchun ular Konstitutsiyada muhrlanmoqda.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Demokratik jamiyatdagi tub o'zgarishlar jamiyatning barcha jabhalariga ta'sir qiladigan keng qamrovli jarayondir. Ular siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda o'z ifodasini topadi.

Siyosiy o'zgarishlar:

Demokratik institutlarning mustahkamlanishi: erkin va adolatli saylovlar, so'z erkinligi, fikrlar xilma-xilligi, qonun ustuvorligi va hokimiyatlar bo'linishi kabi demokratik qadriyatlarning qaror topishi.

Fuqarolik jamiyatining rivojlanishi: nodavlat tashkilotlarning faoliyati, fuqarolarning o'z fikrlarini erkin ifoda etishi va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishi uchun sharoitlar yaratilishi.

Hokimiyatning shaffofligi va hisobdorligi: davlat organlarining qabul qilayotgan qarorlarining shaffofligi, ularning jamiyat oldida hisobdorligi va korrupsiyaga qarshi kurashning kuchayishi.

Iqtisodiy o'zgarishlar:

Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi: xususiy mulkchilikning kafolatlanishi, erkin raqobat muhitining yaratilishi, narxlarning erkin shakllanishi va davlatning iqtisodiyotga aralashuvining kamayishi.

Iqtisodiy o'sish va farovonlikning oshishi: yangi ish o'rinlarining yaratilishi, aholining daromadlarining oshishi, kambag'allik va ishsizlikning kamayishi.

Innovatsion rivojlanish: ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanishi, yangi texnologiyalarning ishlab chiqarishga joriy etilishi va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi.

Ijtimoiy o'zgarishlar:

Inson huquqlari va erkinliklarining hurmat qilinishi: har bir insonning qadr-qimmati, shaxsiy erkinligi, fikr bildirish erkinligi, vijdon erkinligi va boshqa fundamental huquqlarining kafolatlanishi.

Ijtimoiy adolat va tenglikning ta'minlanishi: barcha fuqarolarning teng imkoniyatlarga ega bo'lishi, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarning qo'llab-quvvatlanishi va kamsitishning barcha shakllariga qarshi kurash.

Jamiyatning ochiqligi va o'zaro hamjihatligi: turli millatlar, dinlar va madaniyatlar vakillarining tinch-totuv yashashi, o'zaro hurmat va hamjihatlikning qaror topishi.

Madaniy o'zgarishlar:

Milliy madaniyatning rivojlanishi: milliy qadriyatlar, an'analar va urf-odatlarining saqlanishi va rivojlanishi, milliy o'zlikning anglanishi va milliy g'ururning oshishi.

Jahon madaniyatiga integratsiyalashuv: jahon sivilizatsiyasining eng yaxshi yutuqlarini o'zlashtirish, xalqaro madaniy almashinuvning rivojlanishi va jahon hamjamiyatiga qo'shilish.

Badiiy ijodiyotning rivojlanishi: adabiyot, san'at, musiqa va boshqa ijodiy faoliyat turlarining rivojlanishi, yangi iste'dodlarning kashf etilishi va madaniy merosning boyishi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Demokratik jamiyatdagi tub o'zgarishlar – bu uzoq va murakkab jarayondir. Ular ko'pgina qiyinchiliklar va muammolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Biroq, demokratik o'zgarishlar jamiyatning rivojlanishi va farovonligi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Demokratik jamiyat qurish sharoitida o'rta mulkdorlar qatlami katta salmoqqa ega bo'ladi. O'rta sinf demokratik jamiyatni rivojlantirishda va uning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlashda asosiy kuchga aylanadi. Zero, davlat bunday sharoitda kuchli muvofiqlashtiruvchi kuchga ega bo'ladi, o'rta sinf esa jamiyat taraqqiyotini texnologik, texnik, ilmiy va ma'naviy ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023-yilgi tahrir) – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning nutqlari va chiqishlari. (2021-2023 yillar) – Prezident matbuot xizmati.
3. Harakatlar strategiyasi (2017-2021) va Taraqqiyot strategiyasi (2022-2026). O'zbekiston Respublikasi Strategik rivojlanish agentligi.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy himoya to'g'risida"gi qonuni. – Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
5. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hisobotlari. – 2017-2023 yillar.